

2025-yil – “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” IJODIY PARVOZ



O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTINING MA'NAVİY-MA'RIFIY,
ILMIY, IJTIMOİY GAZETASI

2025-yil sentyabr № 9 (148) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz

MUALLIM DESALAR MENI QANIYDI...

*Nechog' baxtiyorman, ta'zimda shu tob,
Sizning sha'ningizga bitmoqdaman bayt.
Ne odam bo'lardim, qo'limda kitob,
Biror harf tanimay tursaydim loqayd.*

Har gal ushbu misralarni o'qiganimda, ko'z o'ngimda munis muallimlar siymosi gavdalanadi. Ustoz... Bu buyuk zotga dunyo donishlari turlicha ta'rif berishgan. Bizning Sharq mamlakatlarida azaldan ustozning maqomi va martabasi juda yuqori bo'lgan, shogirdni ilm, hunarga o'rgatgan inson padar qatorida ko'rilgan.

Ustoz... Bu ulug' zotni har qancha yuksakka ko'tarsak, uning sharaflari nomini kuylab, madhiyalar bitsak oz. Ham hayot, ham ijod, ham ilm so'qmoqlarida hammaslak, hamtashvish, hamdard bo'lgan, muvaffaqiyatga erishganingda o'zida yo'q suyungan, xato qilsang, ming kuyunchaklik ila nasihat qilgan, ba'zan alqagan, ba'zan yupatgan, ba'zan dakki bergan, ba'zan ortingdan termulib, yorug' kelajagingni, nurli istiqbolingni orzu qilgan, ehtimolki, duolar qilib, tilaklar bildirgan.

Ammo shaksiz, bu ishlarning birortasini shaxsiy manfaat ilinjida, moddiyatini o'ylab, cho'ntagini ko'zlab qilmagan. Ahli ilmga oqil, jamiyatga dono, oilaga kerakli inson tarbiyalashni o'zining burchi, ma'naviy qarzi deb bilgan. Bu yo'lda ming mashaqqat chekkan, tunni kunga ulab mehnat qilgan, ustoz martabasida bo'lsada, xuddi shogirddek, ehtimolki undanda ziyodroq izlangan, o'qigan, o'rgangan.

Qarangki, bugun shogird ilm-u urfon olamiga hokim bo'ldi, matlabi baland, martabasi ulug', jamiyatda o'z o'rniga ega, hokim-u hukamo, shoir-u shuaro, tabib-u shifokor bo'lib oyoqqa turdi, xalqiga esh, el xizmatiga kamarbasta bo'ldi. Yana tanish misralarga qaytamiz:

**Siz-ku “Alifbo”dan “Qomus”gacha to
Bari-barisini tanitgan ustoz.**

**Ilk bor Siz ko'rsatgan duraxshon Zuhro
Bugun she'rim ichra tashbihdir mumtoz.**

Davomi 3-betda ➡

Bugungi globallashuv davrida san'at va madaniyat insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida nafaqat milliy o'zlikni, balki jahon xalqlarining o'zaro muloqotini ham belgilab bermoqda. Shu ma'noda, joriy yilning 27-sentabr kuni “Renessans” kino uyida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan tashkil etilgan “San'atshunoslik va madaniyatshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman nafaqat ilmiy hamjamiyat, balki keng jamoatchilikning e'tiborini tortdi.



San'atshunoslik va madaniyatshunoslik masalalari DUNYO NIGOHIDA

Anjumanning asosiy mohiyati, san'atshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida to'plangan ilmiy yutuqlarni umumlashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularga yangicha yondashuvlarni taklif etishda namoyon bo'ldi. Bu jarayonda nafaqat o'zbekistonlik olim va tadqiqotchilar, balki xorijiy mutaxassislarning ham faol ishtiroki muhim bo'ldi.

Turli mamlakatlardan kelgan ilm egalari o'z tajribalari bilan o'rtoqlashib, san'at va madaniyatni o'rganishning yangi usullari yuzasidan bahs-munozaralarda qatnashdilar.

Bugungi kunda san'atshunoslik faqat tasviriy san'at yoki musiqa tarixini o'rganish bilan chegaralanib qolmaydi. U insoniyat tafakkuri va estetik didini, jamiyatning madaniy hayotini har tomonlama tadqiq etadi.

Madaniyatshunoslik esa ijtimoiy jarayonlar, qadriyatlar tizimi, milliy va umuminsoniy merosning uzviy aloqalarini o'rganishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu ikki fan yo'nalishi zamonaviy davrning eng dolzarb masalalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Quvonarli jihati shundaki, xalqaro anjumanga turli davlatlardan yetakchi oliy ta'lim muassasalari rektorlari va vakillari tashrif buyurishdi. Jumladan, Ozarbayjon davlat madaniyat va san'at universiteti rektori, **professor Jeyran Mahmudova**, Qozon davlat madaniyat instituti rektori, **professor Roza Axmadiyeva**, Oltoy davlat madaniyat instituti rektori, **professor Olesya Kutkina**, Sungkyul universiteti **professori Jin-Hwan Ra**, Temirbek Jurgenov nomidagi Qozog'iston Milliy Badiiy

Akademiyasi professori, **tarix fanlari doktori Arman Kulshanova**, B.Beyshenalieva nomidagi Qirg'iziston milliy madaniyat va san'at universitetidan **Kumarkan Ergeshova** va **Nurjan Marajapova**, M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston davlat universitetidan **Baljan Tleubayeva**, **Aygerim Mirzash** va **Gauxan Nazanova**lar o'z ma'ruzalari bilan faol ishtirok etdilar.

Anjumanning yalpi majlisida “Ozarbayjonda madaniy ta'limning dolzarb masalalari”, “Rossiya xalqlari etnomadaniy an'alarini aktualashtirish”, “Badiiy ta'lim tashkilotlari va madaniyat muassasalarining kasbiy hamkorligi davlatning ijtimoiy-madaniy sohasini rivojlantirish sifatida”, “Ijtimoiy uyg'unlik sari:

Davomi 3-betda ➡

SA'NAT VA MADANIYAT SOHASIDA QAHRAMON AYOL SIYMOSI

Bugungi
sonda:

O'zbekiston xalq artisti Munajat Yo'ldiyevani ilk bor muxlislarga sevimli qilgan, hazrat Navoiy so'zi bilan aytiladigan “Munajot” ashulasini tinglagan betakror damlarimizning hayajonlari faqat o'sha onlarda emas, hofizani qachon eshitsak, takrorlanadi.

2 ➡

MEDIA OLAMIDA QADRYATLAR QANDAY O'ZGARMOQDA?

Odamning kuchi – uning “men”ida, jamiyatning kuchi esa, “biz”ida. Zamonaviy media makon esa, bizdan shu ikki tushuncha o'rtasida muvozanat topishni talab qilmoqda. Chunki agar “men” haddan ortsa, individualizm egoizmga aylanadi, agar “biz” butunlay ustun kelsa, insonning shaxsiy erkinligi va orzulari yo'qoladi. To'g'ri yo'l ikkisinining uyg'unligidir.

3 ➡

“MEHNATDAN, MAS'ULIYATDAN QOCHMASANG, SENI SHOGIRDLIKKA OLAMAN”

Bir kuni Karimboy Rahmonov Bobomurod Hamdamovnikiga bordi, shogirdlikka olishini so'radi. Bobomurod Hamdamov unga bir-ikita ashula aytirib ko'rdi, dardini eshitdi. So'ngra: “Mehnatdan, mas'uliyatdan qochmasang, astoydil harakat qilsang, maqsadingga erishasan. Seni shogirdlikka olaman”, dedi. Shu-shu shogird ustozini izzat-ikrom qilib keldi, hanuzgacha xotirlab turadi.

4 ➡

TARIXNING BIZ BILMAGAN SAHIFALARI...

Meni quvontiradigan bir jihat shuki, jadidchilar haqida olingan yuzlab filmlar ichidan “Armon” nomli hujjatli filmda O'zbekiston tarixidagi ilk ayol kashshofi ya'ni jurnalisti haqida ham so'z yuritilgan. Aynan birinchi o'zbek ayol jurnalisti Nozima Xonim e'tiborimni tortdi.

5 ➡

Munojotxonda o'zbek ayoli
timsoli mujassam

Sh. MIRZIYOYEV

Dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, ongu tafakkuri, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini belgilovchi, ta'lim-tarbiyasini takomillashtiruvchi xilqat – ayoldir. Xotin-qizlarga bo'lgan munosabat, hurmat-ehtiromni davlatning ularga bo'ladi-gan munosabatida belgilash mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, ayollarni ulug'lab, ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq o'zining yuksak madaniyati va qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan millat sifatida hurmat qozonadi. Otabobolarimizning "Ayolini siylagan el ulug' bular", degan hikmatida xalqimizning oliyjanob fazilatlarini mujassamdir. Zero, ayol kamolotisiz jamiyat kelajagi bo'lmasligiga to'liq ishonch hosil qilamiz.

Dilnoza QURBONOVA,
Tahririyat va nashriyot
bo'limi xodimi

maromiga yetkazib ijro qilgan "Sarah-bori dugoh", "Mo'g'ulchai navo", "Talqini ushshoq", "Safti Chorgoh", "Girya" kabi maqom ashulalari deysizmi, "Ey dilbari jonim", "Ishqing o'tig'a" kabi katta ashulalar deysizmi yo "Tanovor", "Izlayman" kabi xalq qo'shiqlari bo'ladimi, tinglovchini o'zi yashayotgan olamdan boshqa yana bir olam borligiga ishoniradi.

Munojat Yo'lchiyeva 1997-yilda "Sharq taronalari" birinchi xalqaro musiq festivalida 1-mukofot sovrindori, 1998-yilda "El-yurt hurmati" ordeni hamda 2021-yil mustaqilligimizning 30 yilligi oldidan "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangani, bularning barchasi tinimsiz izlanish va intilishlarning samarasidir. Bu darajaga yetishishda avvalo, fidoyilikda olib borilayotgan mashaqqatli mehnat, dars va amaliyotlarning barakali mevasi sifatida e'tirof etilishidir.

O'zbekiston Qahramoni, asl san'at shaydosi Munojat Yo'lchiyeva yuksak unvon bilan g'ururlanib: *"Biz uchun bebaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar, necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dardu, armonlarini ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelayotgani bilan e'tiborga molik. Sharq mumtoz adabiyoti, tasviriy san'ati, ilm-ma'rifat, islomiy qadriyatlardan oziqlangan maqom san'atiga – ana shunday buyuk madaniy meros rivojiga o'zbek xalqi ham munosib hissa qo'shgani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz"*, – deb minnatdorlik bildirgan edi.

Biz Munojat Yo'lchiyeva timso-lida, Yangi O'zbekiston madaniyati va san'atini rivojlantirishda ulkan hissa qo'shayotgan o'zbek ayolining ijtimoiy hayotda faol ishtirok etib, o'zbekona turmushda gender tenglikni namoyon etayotgan buyuk zamondoshimizni ko'ramiz. O'zbekistonda erkak qanday ulkan martabaga, shonga erishsa, ayollar ham shunday mavqega ega bo'lishi mumkin. Agar shunday huquqiy tenglik bo'lmaganida, Munojat Yo'lchiyeva kabi ayollarimizdan buyuk iste'dod sohibalari chiqmagan bo'lardi.

Xulosa o'rinda ulug' bobokalonimiz Abdulla Avloniyning quyidagi aytganlari bilan so'zimizni muxtasar qilsak ayni muddao bo'ladi: *"Vatan tuyg'usi eng insoniy eng mo'tabar tuyg'ulardan biridir. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan – onadek muqaddas, uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'am-tashvishlarini baham ko'rish farzandning burchi"*dir. Hayotda ham, san'atda ham sevimli, hurmatga sazovor Munojat Yo'lchiyeva ana shu burchni ixlos bilan ado etayotgan O'zbekiston Qahramoni ekanligi bilan ham ardoqlidir.

Munojat Yo'lchiyeva siymosi san'at va madaniyat sohasida o'ziga xos qahramon ayol obrazini yaratdi. Uning ijodi milliy san'atni zamonaviy dunyo talablari bilan uyg'unlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, xalqning ma'naviy qadriyatlarini dunyo sahnasiga olib chiqish yo'lida mustahkam poydevor yaratdi. Uning ijrochilik faoliyati xalqning yuragiga yaqin. Chunki u har bir kuyda ajdodlar ruhi va milliy o'zlikning abadiyligini ifoda etadi.

Sa'nat va madaniyat sohasida QAHRAMON AYOL SIYMOSI

Bugun Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarimiz azizu mukarramlilikning baland shohsupalariga olib chiqilayotgani ham aynan ushbu hikmatning bardavomligidan dalolatdir. Davlatimiz rahbarining ta'biri bilan aytganda: *"Xalqimiz azal-azaldan ona siymosini, ayol zotini Yaratganning ulug' ne'mati, tengsiz mo'jizasi deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi"*. Darhaqiqat, ayol qaysi davr, qanday mavqe, qay bir sharoitda bo'lmasin, baribir muqaddas zot bo'lib qolaveradi. Zotan, ayol yuksalsa, butun bashariyat yuksaladi, degan ibora bor.

Tariximizning qaysi davriga nazar solmaylik, ayol mudom ezgulik timsoli, murabbiy va komil inson tarbiyachisi bo'lib kelganini ko'ramiz. Xalqimizning buyuk tarixida o'zining jasorat va mato-nati, aql-zakovati, nafosat va nazokati bilan o'chmas iz qoldirgan To'maris, Bibihonim, Gulbadanbegim, Zebuniso, Nodira, Uvaysiy Anbar Otin va yuzlab ayollarmizni hamisha ehtirom bilan tilga olamiz. Bugungi kunda barcha sohalarda yetuklikka erishib kelayotgan opa-singillarimiz chinakam To'marislavlodi ekanini alohida namoyish qilishmoqda. Necha asrlar davomida O'zbekiston jamiyatida ulug' iste'dod sohibalari yetishib chiqib, ularning ijodi, asarlari, hayot yo'li umuminsoniy fazilatlarini tarannum etib kelmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Nodirabegim yozganidek: *"Maqsad na edi jahona kelding, kayfiyatingni bayon etib ket"*.

Eng oliy "O'zbekiston Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgan, o'zining

buyuk iste'dodi, noyob va betakror ijodi bilan milliy musiqa san'atini dunyo xalqlari o'rtasida keng targ'ib qilgan, o'zbek mumtoz san'atini yanada rivojlantirishda katta hissa qo'shgan zabardast san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Munojat Yo'lchiyeva qahramonimizdir.

O'zbekiston xalq artisti Munojat Yo'lchiyeva 1960-yil 25-noyabrda Andijon viloyatining Buloqboshi tumanida tavallud topgan. 1985-yilda Toshkent davlat konservatoriyasini tamomlab, ustoz Sh.Mirzayevdan an'anaviy xonandalik va maqom san'ati sirlarini o'rgangan. U O'zbekiston teleradio kompaniyasining "Maqom" ansamblida (1980-1982), M.Qoriyoqubov nomidagi o'zbek davlat filarmoniyasida (1982-yildan, 1996-yilda "O'zbeknavo") xonanda bo'lib o'z faoliyatini olib bordi.

Munojatxon Yo'lchiyeva nafaqat mahoratli ijrochi, balki milliy maqom san'atini yosh avlodga o'rgatish orqali uning umrboqiyiligini ta'minlashda fidoyilik ko'rsatgan ustoz sifatida ham tanilgan. U o'z faoliyati davomida xalq an'alarini zamonaviy talqin bilan uyg'unlashtirib, o'ziga xos san'at maktabini shakllantirgan va bu orqali nafaqat san'at olamida, balki jamiyatda ham ayolning yuqori mavqeini shaxs sifatida ifoda eta olgan yuksak siymodir. Fidoyi xizmatlari natijasida Munojatxon Yo'lchiyeva san'at va madaniyat sohasida birinchi ayol qahramon unvoni va chin ma'noda siymosiga aylandi. Ushbu hodisa o'zbek ayollarining imkoniyatlari va ularning ijtimoiy hayotdagi rolini yanada yuksaltirdi.

Munojat Yo'lchiyevaning san'at va

San'atshunoslik va madaniyatshunoslik masalalari dunyo nigohida

◀ **Boshlanishi 1- betda**

o'zgaralar qarashlarini jamiyat fikr-mulohazalariga singdirish", "So'zlovchi mizansahnalar" rejissura san'atida asarning g'oyaviy-tematik mazmuni ifodasi sifatida" va "O'zbekiston tarixi – madaniyat tarixi" kabi dolzarb mavzularda ma'ruzalar tinglandi.

Mazkur xalqaro anjuman nafaqat ilmiy qarashlarni almashish, balki madaniy diplomatiyaning samarali maydoniga ham aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki madaniyat va san'at xalqlarni birlashtiruvchi, o'zaro hurmat va hamkorlikka chorlovchi qudratli kuchdir. Bu jihatdan institut tomonidan bunday ilmiy-ma'rifiy tadbirlarning muntazam tashkil etilishi, O'zbekistonning ilmiy-madaniy salohiyatini yuk-



saltirishga hamda mamlakatimizning jahon ilm-fan makonida munosib namoyon etishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman kelgusida yangi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam poydevor bo'ldi, sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, olimlar va yoshlar uchun o'zaro tajriba almashish imkoniyatini yaratdi. Mazkur anjuman madaniyat va san'at sohalarida global hamkorlikning kengayishiga, yosh tadqiqotchilarning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishga va milliy madaniyatimizni jahon miqyosida keng targ'ib etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Kamoliddin UMAROV,
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik"
kafedrasi katta o'qituvchisi,
san'atshunoslik fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)



MUALLIM DESALAR MENI QANIYDI...

◀ **Boshlanishi 1- betda**

Shoirni she'r yozmoqqa, rassomni rasm chizmoqqa, bastakorni qo'shiq bastalamoqqa o'rgatib bo'ladimi? Tabiiy iste'doddan judo, ilohiy ne'matga vobastga bo'lmagan qalbga ijod zavqini singdirib bo'ladimi? Yo'q, albatta. Ammo nega shogird ustozidan minnatdor? Axir u quruvchi emas-ku, binoga qanday g'isht qo'yishni o'rgatgani uchun ustoziga ta'zim qilsa? U iste'dod – samoviy ne'mat deya kibrlanishi, o'z yaratuvchanligidan sarmast bo'lishi, ustozini nazardan chetda qoldirishi hech gap emas-ku! Vo-darig', nechuk Temurdek buyuk muzaffarlar, Navoiydek ulug' shoirlar ustoz oldida bosh egishdi? Yetti iqlimga dong'i ketgan rumlik Iskandar ne sabab "ustozni avval" Arastu oldida tiz cho'kib, saboq oldi? Yetmasmidi unga dunyo hokimligi, saltanat boyligi, zarurmidi ustoz ko'magi, o'giti? Ha, har qanday favqulodda iste'dod, buyuk hodisaning tarbiyachisi, ijodkori ham ustozdir.

Agar qo'lga qalam tutib, yozmoqqa, kitob berib "hijjalab" bo'lsada o'qimoqqa maj-

bur qilmaganida shoir she'r yoza olarmidi? She'r yozmoqqa tabiiy iste'doddan avval savod kerak emasmi?

Shoir aytmoqchi, qo'lida yostiqdek kitobi, dilida she'r bitmoqqa tog'dek istagi bo'lsa-yu, "Alifbo"dan biror harf tanimay tursa, ne odam bo'lardi?, qay yuz bilan bosh ko'tarib yurardi? Yana she'rga diqqat qilamiz:

**Buyuklar haqqiga qasamyod gap bu:
Sizdan boshlanadi asli tafakkur.
Olamda ko'p erur muborak onlar,
Tabarruk zotlar ham garchand ko'p erur.
Sizgadir ilk rahmat, aziz insonlar,
Munis muallimlar, sizga tashakkur.**

Shoirda armon bormi? She'rlari saylanmalarga aylanib, kitob javonlarida taxlanib yotgan bo'lsa? O'tgan-ketgan dasxat so'rab, ortidan ergashsa, yangi she'rini intizor bo'lib kutishsa, uchrashuvlarga taklif qilishsa... Hofizu mug'anniylar she'rlarini qo'shiq qilib kuylashsa! Maktab oliygohlarga she'rlari shior qilib osib qo'yilsa, yana ne kerak ularga? Ularda ham armon, o'kinch bormikin? Qarangki, qanchalik hayratlanarli bo'lmasin, bor ekan:

Shohrux ABDURASULOV,
"Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrasi dotsenti,
san'atshunoslik fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Shoirga dedilar: "Siz baxtli inson",
Xalqingiz ardoqlar, hamma taniydi,
Shoir javob qildi: "Menda bir armon"
Muallim desalar meni qaniydi...**

Yusuf Xos Hojib aytmoqchi, ikki turli kishi haqiqiy insondir:

biri – o'rgatuvchi, biri o'rganuvchi. Shu palla ko'nglimdan shunday o'y o'tdi:

Ustoz! Sizning maqom-u martabangizga yetmog'im dushvor, hech yo'g'i, va'z-nasihatlaringizga amal qiluvchi, ilmingizdan bahra oluvchi munosib va musharraf shogird bo'lay! Buyuk alloma aytgan ikkinchi – ya'ni, o'rganuvchi sifatida azizlik maqomiga ko'tarilay! Shoyad shu ilinj ila yo'lingizni davom ettiray, xalqqa, jamiyatga kerakli inson bo'lib qolay!

TARIXNING biz bilmagan sahifalari...

Komila AKBAROVA,
Kino san'ati tanqidi va tahlili
yo'nalishi 4-bosqich talabasi

"Armon" filmi dunyoning yetakchi tarixchilari tomonidan jadidchilik harakati tarixini tasvirlaydi. Mazkur film 4K uslubida, zamonga xos ravishda, sun'iy intellekt yordamida jadidchilik harakati muhitini yarata olingani bilan ham ajralib turadi.

Filmda animatsiya mahoratli ishlangan bo'lib, to'q ranglar: ko'k, qora, oq yoki shu'la ranglardan foydalanilgan. Mening fikrimcha ko'k, qora ranglar Turkiston xalqining zulmatli kunlari, oq esa jadidlarimizdir. Zero, zulmat nechog'lik insonni qurshab olmasin, yorug' kunlar ham keladi...

Mening fikrimcha, filmni "Armon" deb nomlanishi – jadidchilik erkinlikka, ilmga intilgani, Turkiston xalqining qoloq, qul sifatida qolib ketishi, erkin bo'lishlarini ko'rishlariga ko'zi yetmagani, ularning eng katta armoni bo'lib qolgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Nozima Xonim, shuningdek, qirg'iz jadidchilari: Mag'jon Jumaboyev, Fayzulla Xo'jayev va boshqa jadidchilar haqida ma'lumotlar berilgan.

Filmda yangicha yondashilgan. Bunga misol, filmda Miskin, Xislat, Tavallolarning fojeali hayot voqealari, qirg'iz jadidchisi Mag'jon Jumaboyev yoki birinchi o'zbek ayol jurnalisti Nozima Xonim haqida qo'shiq va kichik sahna ko'rinishlari yordamida yangi taassurotlar qoldiradi.

Meni quvontiradigan bir jihat shuki, jadidchilar haqida olingan yuzlab filmlar ichidan "Armon" nomli hujjatli filmda O'zbekiston tarixidagi ilk ayol kashshofi ya'ni jurnalisti haqida ham so'z yuritilgan. Aynan birinchi o'zbek ayol jurnalisti Nozima Xonim e'tiborimni tortdi.

Davomi 8-betda ▶

Xalqimizda “oqqan daryo oq-may qolmas”, degan hikmat bor. Karimboy Rahmonov tugʻilib oʻsgan, voyaga yetgan yurtida ushbu hikmat moddiy maʼnoda tezoqar Amudaryoga, majoziy maʼnoda esa, boshiga ish tushgan, lekin sinovlarga mardonavor dosh berib, keyinchalik oʻz yoʻlini topadigan irodali kishilarga nisbat beriladi. Bir qarashda sokindek koʻrinadigan Amudaryo vaqti kelsa, shiddat bilan oqadi. Karimboy Rahmonov ham tashqi koʻrinishdan juda sokin, vazmin inson. Uni yaqindan tanigan, aytgan ashularining maʼnolarini chuqur idrok etganlarga hofizning goʻzal ichki dunyosidan boxabar boʻladilar.



“Mehnatdan, mas’uliyatdan qochmasang, seni shogirdlikka olaman”

Yosh Karimboy Rahmonov bolaligidanoq ustoz Komiljon Otaniyozov sanʼatiga oshifta boʻldi, uning ashularini aytdi. Lekin ustoz sanʼatkor 1975-yilda vafot etgan edi. Karimboyga nevara shogird boʻlish nasib qildi. Bir kuni sanʼatkor Bobomurod Hamdamovnikiga bordi, shogirdlikka olishini soʻradi. Bobomurod Hamdamov unga bir-ikkita ashula aytirib koʻrdi, dardini eshitdi. Soʻngra: “Mehnatdan, mas’uliyatdan qochmasang, astoydil harakat qilsang, maqsadingga erishasan. Seni shogirdlikka olaman”, dedi. Shu-shu shogird ustozini izzat-ikrom qilib keldi, hanuzgacha xotirlab turadi. U Otajon Xudoyshekurov, Ortiq Otajonov, Olmaxon Hayitova, Sherali Joʻrayev kabi ulugʻ sanʼatkorlarni ham oʻz ustozlari deb biladi va ularni qadrlaydi.

Milliy musiqa madaniyatimizni ustun tutgan Komiljon Otaniyozov nafaqat ijrosi, balki uning xulq-atvori, madaniyati, mas’uliyati ham Karimboy uchun ibrat maktabi boʻldi. U ustozining yoʻlidan yurib, maktabida tarbiyalanib kamol topdi. Komiljon Otaniyozov va Karimboy Rahmonov hayotining oʻxshash jihatlari koʻp. Jumladan, har ikkalasi ham 12 yoshlarida yetim qolgan, yesirlik mashaqqatlarini boshdan kechirgan, “chaqmoq toshday non”ni yegan. Karimboyning hayoti qiyinchiliklar, mashaqqatlar ichra oʻtgan. Bir yil ichida onasi Oʻrozgul opa, keyin otasi Rahmon aka vafot etadi. Beshta aka-uka yetim qoladi. Bir burda non topish, oyoqqa turish uchun qilmagan ishi qolmadi. Uyda ayol kishi yoʻq, non yopish katta muammo. Yaxshiyamki, rahmdil qoʻshni ayollar bor ekan, Karimboy olib kelgan yarim qop undan xamir qorib, non yopib berishardi.

Mashaqqatlar maktab davridan keyin Urganchdagi Xarratov nomidagi bilim yurtida, soʻng pedagogika oʻquv yurtida oʻqigan davrida ham davom etdi. Ovqat puli beradigan gʻamxoʻri yoʻq talaba oʻqish davrida ham bironlarning ishini qilib, non puli topdi. Lekin uning irodasi sinmadi, xonanda boʻlish ishtiyoqi soʻnmadi. Zotan, nochorlikdan

qutulish yoʻli – mehnat va metin irodadir. Karimboy elga tanilguncha, yarimta noni butun boʻlguncha koʻp riyozatlar chekdi. Xonanda oʻz mahoratini oshirish uchun tinmay izlandi, oʻqidi, 2000-yilda Toshkent davlat madaniyat institutini tamomladi.

Riyozatlar uni tobladi. Uning hayot yoʻlini eslar ekanman, Alisher Navoiyning quyidagi misralari yodimga tushadi.

“Mehnat aro dur, kushod topmoq bilgil,

Ranj ichra durur murod topmoq bilgil”.

Navoiy hazratlari kushod topmoq, yaʼni istiqbol yoʻlini ochish mehnat qilishda ekani va ayni zamonda maqsadga erishish mashaqqat ichra boʻlishini aytmoqda. Zero, maqsadga erishish uchun kishi mushkulotlar changalzori zahmatiga bardosh berishi darkor. Bu esa, katta va metin iroda talab qiladi.

Komiljon Otaniyozov “Otaligʻning molin boqdim...” qoʻshigʻini ichki dard bilan kuylagan. Bu qoʻshiq Karimboyning holiga mos tushgani uchun u ham yetimlik yillarini, “yuragida barq urgan oʻsha kunlar”ni eslab, shu qoʻshiqni aytgan. “Navo” kanalining “Xushvaqt” dasturida boshlovchi Tolibjon Isroilovning “Birinchi aytgan qoʻshigʻingiz qaysi?” degan savoliga javob berarkan, Karimboy ayni shu qoʻshiqni tilga olgan va kuylab bergan edi. Ulugʻ ustozni eʼzozlash, uning yoʻlidan yurish Karimboy ogʻa uchun Vatan va millatni ulugʻlash, milliy qadriyatlarimizni, milliy musiqamizni eʼzozlash degani edi.

Davlatimiz mumtoz musiqa sanʼatimizni rivojlantirish, maqomlarimizni kengroq targʻib qilish masalasiga soʻnggi yillarda alohida eʼtibor berayotgani bejiz emas. Poytaxtdagina emas,

viloyatlarda maqom dastalari tashkil qilinmoqda, maqom saroylari bunyod etilib, ijrochilarga yaxshi sharoitlar yaratib berilmoqda.

Sanʼatkor soʻz tanlashga juda jiddiy yondashmogʻi lozim. Soʻz – gavhar, u musiqa eshligida shinavandaga yetkazilsa, juda katta taʼsir kuchiga ega boʻladi. Ustozlar soʻzga ham, ijroga ham, xonanda madaniyatiga ham oʻta talabchan boʻlganlar. Ularning bebaho merosi bizni soʻz, musiqa va ijroga mas’uliyat bilan yondashishga chorlaydi. Ayni maqomlar, Suvora, Segohlar ijrosida hofizning ogʻriqli qalbining dardli nolalari teran ifoda etilgan. Katta Suvoradagi: “Qizil gul gʻunchasi yangligʻ sarosar bagʻri qondurman” misrasini alohida dard bilan aytishida ham Karimboy ogʻaning ichki dardi oʻzining yaqqol ifodasini topgan. “Chorgoh”, “Talqini Rost”, “Chapan-dozi Suvora”, “Feruz”, “Orazibon” kabi mumtoz asʼhalalarni ham sanʼatkor oʻzgacha mehr va ixlos bilan meʼyoriga yetkazib kuylaganki, bu ijrolar muxlis-larni aslo befarq qoldirmaydi.

Karimboy ogʻa ustozlar ijro etgan ashular bilan birga oʻz yoʻlida “Yurt madhi”, “Kimlar yetar”, “Vataningni qilgʻil ziyorat”, “Qoʻymadingiz, qoʻymadingiz” kabi 100 dan ziyod qoʻshiqlar yaratdi. Xususan, “Shirin-shirin soʻzlagan, shu goʻzal xumoriman” qoʻshigʻi shinavandalar qalbidan joy oldi. Konsert, toʻylarda shu qoʻshiqni talab qiluvchilar soni koʻpaydi. Shuningdek, u turkman, qoraqalpoq, qozoq, ozarbayjon, tojik, afgʻon, hind qoʻshiqlarini ham zoʻr ishtiyoq bilan kuylaydi va qardosh xalqlar oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlashga ham oʻz hissasini qoʻshib kelmoqda.

Taassufki, keyingi vaqtda ayrim xonandalar sahna muqaddas dargoh,

oʻziga xos tarbiya maktabi ekanini unutilib qoʻyayotganga oʻxshaydi. Beibo soʻzlar soʻzlash, qiliqlar qilish urf boʻlayotganga oʻxshaydi. Bugungi yoshlarimiz orasida ilmiy, odobli, oʻzbek qadriyatlarini ulugʻlaydiganlari bisyor. Lekin Gʻarbning “ommaviy madaniyat”iga koʻr-koʻrona taqlid qilayotganlar ham yoʻq emas.

Karimboy Rahmonov axloq-odob, sahnada oʻzini tutish borasida ham, kuylayotgan qoʻshiqlarida ham azaliy qadriyatlarimizni ulugʻlab, ustozlar yoʻlini davom ettirmoqda.

– Amerikalik yozuvchi va rassom Genri Millerning bir gapı bor:

“Eng muhimi – oʻzligingizcha qolish.

Bu buyuk sanʼat. Bu eng qiyini, chunki sizdan hech qanday kuch talab qilmaydi. Hech kimga va hech narsaga taqlid qilish, oʻzingizni donishmand qilib koʻrsatish yoki ahmoqqa oʻxshab koʻrinish shart emas. Shunchaki oʻz ovozingiz bilan gapirish va sevgan ishingiz bilan shugʻullanish kerak, xolos”, – deydi Karimboy ogʻa.

Karimboy Rahmonovning vatan, el oldidagi xizmatlari munosib taqdirlandi. U “Doʻstlik” ordeni hamda Qoraqalpogʻistonda xizmat koʻrsatgan artist unvoni bilan mukofotlandi. Bu mukofotlar sanʼatkorning mas’uliyat hissini yanada chuqurlashtirdi, u mahoratini oshirish, yangi qoʻshiqlar yaratish borasida tinimsiz izlanmoqda. Bugungi kunda soʻz, soz va ijro mas’uliyati tufayli Karimboy Rahmonov ustoz maqomiga erishdi, bir necha shogirdlarni tarbiyaladi. Mas’uliyat tuygʻusi uni kamol toptirdi, shu tuygʻu uni elimizga manzur boʻladigan yangi-yangi ashular ijod qilishga undamoqda.

A.SODIQOV yozib oldi.

O'tkir Hoshimov ijodiga chizgilar

Adabiyot – millatning ruhiy xazinası, xalq qalbining eng nozik tuyg'ularini ifoda etuvchi ma'naviy qudratdir. O'zbek adabiyoti tarixida xalq dard-u tashvishlarini, insoniy kechinmalarni, mehr va vijdon kabi abadiy qadriyatlarni samimiyat bilan tasvirlagan ijodkorlardan biri – O'tkir Hoshimovdir. Uning asarlari kitobxon hayotida nafaqat badiiy zavq uyg'otdi, balki ijtimoiy va shaxsiy hayotga yangicha nigoh bilan qarashga ham chorlay oldi.

Nargiza SHODMONOVA,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish"
ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

O'tkir Hoshimov ijodining markazida inson va uning taqdiri turadi. Yozuvchining mashhur "Dunyoning ishlari" asari xalq orasida eng ko'p o'qiladigan kitoblardan biriga aylangan. Ushbu asarda onaning mehr-muhabbati, oddiy insonlarning hayotiy tashvishlari, mehr-oqibat va vijdonning naqadar ulug' fazilat ekanligi chuqur tasvirlangan. Asar qahramonlari oddiy, hayotdan olingan, kitobxon ularning ichki dunyosini his qilar ekan, o'zini ham o'sha voqealar ichida ko'rgandek bo'ladi.

Yozuvchining qalamiga mansub boshqa roman va qissalarda ham xalqona ruh, milliy qadriyatlarga sadoqat va hayotiylik ustuvor o'rin tutadi. U

ijodida shunchaki badiiy tasvirni emas, balki jamiyatdagi muammolarni ham yoritishga intildi. O'tkir Hoshimovning publitsistik qarashlari ham uning badiiy ijodi bilan uyg'un bo'lib, xalq hayotining muhim masalalarini ifodaladi. Yozuvchi ijodida adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati ham yaqqol namoyon bo'ladi. U kitobxonni o'ylashga, hayotga boshqacha nigoh bilan qarashga, insoniylik va mehr-oqibatni qadrlashga undaydi. Shu bois, O'tkir Hoshimov asarlari zamonlar o'tib ketgan bo'lsa-da, dolzarbligini yo'qotmaydi, balki yangi avlod uchun ham ma'naviy saboq vazifasini o'taydi.

O'tkir Hoshimov ijodi o'zbek adabiyotining bebaho boyligidir. Uning asarlaridagi xalqona ruh, samimiyat, sadoqat va matonat haqidagi o'ylar o'zbek kitobxoni qalbidan chuqur joy oldi. U hayotni oddiy odamlar nigohi bilan tasvirlab, inson qalbini "adabiyot nafasi" bilan sug'orishga muvaffaq bo'ldi. Bugun ham, ertaga ham O'tkir Hoshimov asarlari xalqimiz ma'naviy hayo-



tida o'zining dolzarb o'rnini saqlab qoladi va kelajak avlod uchun ibrat manbai bo'lib xizmat qiladi.

E'zoza KARIMOVA,
Madaniyatshunoslik yo'nalishi
2-bosqich magistranti

garalanmasdan, virtual guruhlar, onlayn hamjamiyalar, telegram kanallari, YouTube auditoriyalari ham birdamlikni tashkil etmoqda. Masalan, bir ijtimoiy loyiha atrofida yuzlab yoshlar onlayn tarzda birlashishi, xayriya tadbirida minglab odam ijtimoiy tarmoq orqali qatnashishi mumkin. Shuni ham unutmash kerakki, media orqali tarqaladigan axborot jamoaviy qadriyatlarga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ba'zi hollarda mahalla birdamligi o'rnini virtual birdamlik egallaydi: kimdir muammosini oilasidan, qo'shnisidan emas, balki Facebook guruhidan so'raydi, ba'zan o'zi ham, maqsadi ham noma'lum shaxslarni do'st biladi. Bunda kishining shaxsiy xususiyatlari – individualistik yoki kollektivistik (jamoaviylik) xususiyatlari ham katta rol o'ynaydi. Bu o'zgarishlar mahalla, qo'ni-qo'shnichilik kabi qadriyatlari bilan dunyoga namuna bo'ladigan jamiyatimiz uchun yangi imkoniyat hamda yangi sinov desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Muvozanat zaruriyati yuqoridagi kabi ijobiy va salbiy misollarni juda ko'p keltirish hamda mavzu yuzasidan bir qancha tadqiqotlar olib borish mumkin. Aslini olganda, shaxsiy qadriyatlarni kuchaytirish zamon talabi bo'lib, zamonaviy dunyoda ijodkorlik, tashabbus, o'zini namoyon eta olish katta ahamiyatga ega. Ammo bu jarayonda biz jamoaviy qadriyatlarni unutib qo'ysak, insoniylikning eng muhim poydevorini boy berishimiz mumkin.

Zero, odamning kuchi – uning "men"ida, jamiyatning kuchi esa, "biz"ida. Zamonaviy media makon esa, bizdan shu ikki tushuncha o'rtasida muvozanat topishni talab qilmoqda. Chunki agar "men" haddan ortsa, individualizm egoizmga aylanadi, agar "biz" butunlay ustun kelsa, insonning shaxsiy erkinligi va orzulari yo'qoladi. To'g'ri yo'l ikkisining uyg'unligidir.

Bugun biz media orqali yangi qadriyatlarni qabul qilyapmiz. "Men" – o'zini anglash, rivojlantirish, jamiyatda ovozini eshittirishdir. "Biz" esa birdamlik, hamkorlik, mehr-oqibatdir. Shaxsiy muvaffaqiyatni jamoaviy qadriyatlar bilan, shaxsiy manfaatlarni jamiyat va davlatning ijtimoiy mo'ljali bilan uyg'unlashtira olgan jamiyatgina taraqqiyotga erishadi.



Bugungi zamonni mediasiz tasavvur qilishning imkoni yo'q: qo'limizda telefon, ko'z o'ngimizda internet, raqamli dunyo. Globallashuv insoniyatga tarmoqlar orqali nafaqat voqealardan xabardor bo'lish, balki o'zini ham jamiyatga ko'rsatish, ovozini baralla eshittirish imkonini berdi. Ushbu jarayonda quyidagi savol doimiy muhokamaga sabab bo'lmoqda: biz shaxsiy qadriyatlarni ustun qo'yayotgan bir paytda, jamoaviy qadriyatlardan uzoqlashib ketmayapmizmi?

Instagram yoki TikTok sahifalarida yoshlar o'zining eng yaxshi suratlarini, eng go'zal orzularini, ko'plab muvaffaqiyatlarini ulashadigan bu olamda "men" tushunchasi yanada kuchayib bormoqda, har kim o'zini alohida shaxs sifatida ko'rishni, jamiyatda o'z ovozigaga ega bo'lishni istamoqda. Ushbu jarayonning ijobiy tomonini ham rad etib bo'lmaydi. Media yoshlarni erkin fikrlashga, o'z qobiliyatini ochishga undayapti. Misol uchun, bir qiz bloggerlik qilib qo'shiqchilikni rivojlantirsa, boshqa bir yigit videoroliklari orqali tadbirkorlikka yo'l topadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab influenserlar bong urib targ'ib qilayotgan "men" qadriyatining kuchayishi yoshlarning o'ziga ishonchini oshirayotgani ham sir emas. Ammo yaqinda bir ma'lumot e'tiborimni tortdi. 2024-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, individualizm-kollektivizm darajasi ijtimoiy media qa-

bul qilinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, jamiyatda individualizm kuchli bo'lsa, mediada yangi platformalar va kontent tezroq qabul qilinadi. Demak, media kishilarni individualligini oshirish bilan birga o'ziga ko'proq jalb qilishni ham birvarakayiga amalga oshirmoqda.

Boshqa bir tadqiqotda esa, kollektivistik shaxslar, individualistiklarga nisbatan, media tomonidan berilgan ma'lumotni olganda, xavfga yanada sezgir bo'lish hamda manbadan ko'proq javobgarlik talab qilishi aytiladi.

Ana shunday davrda jamiyat birdamligi, vatan taqdiri, millat ertasi, mahalla, oila hamjihatligi kabi g'oyalarga soya tushib qolayotgandek tuyuladi. Ammo media jamoaviy qadriyatlarni butunlay yo'qotgani yo'q, aksincha, ularni yangi shaklga keltirdi. Endi jamoa faqat mahalla yoki qarindosh-urug' bilan che-



Davirbek ABDURAHMONOV,
Dramatik teatr rejissorligi yo'nalishi,
2-bosqich magistranti

Talabalar madhiyasi

Tomirida Temur qoni oqib turib,
Asl o'zbek farzandidek bo'lmoq kerak.
Ulug'bekdek yulduzlarga boqib turib,
Yerda yashab, koinotni ko'rmoq kerak.

Navoiyga havas qilar butun jahon,
Shunday ekan, Navoiyni bilmoq kerak.
Yozib ketgan ibrat bo'lar necha doston,
Har birini o'qib amal qilmoq kerak.

San'ati ham tarixiga mutanosib,
Bo'lgan yurtimiz shuni yodda tutmoq kerak.
Chin san'atga chin san'atkordir munosib,
Dildan mehnat qilib hosil kutmoq kerak.

Shukur Burhon ranjir, yurak ishlamasa,
San'at uchun yuraklarni bermoq kerak.
Agar buni o'sha yurak xushlamasa,
Rizq gulini o'zga bog'dan termoq kerak.

Aylantirib yurti san'at o'chog'iga,
Butun olam ichra azim qilmoq kerak.
Mehr bilan olgan bizni quchog'iga,
Bu vatanga ming bor ta'zim qilmoq kerak.

Men sizga ta'riflar topishim mushkul,
Siz uchun yetarli so'z bormi bilmam.
E'tirof etmaslik imkonsiz butkul,
Sizda butun jahon ta'riflari jam.

Tuproqqa qiyoslar etsam ranjimang,
Chunki siz tuproqdek mushfiq, hokisor.
Dilingiz, tilingiz bilan hamohang,
Hatto tanbehlingiz ham beozor.

Quyoshga o'xshatsam ajablanmang hech,
Quyoshning nuri ham sizga o'xshaydi.
Lekin o'sha quyosh nuri sizchalik,
Olamni charog'on yoritolmaydi.

Siz suvga o'xshaysiz sababin aytsam,
Bilinga chanqog'ni qondirguvchisiz.
Siz misli olovsiz bizlarni har dam,
Ilmning ishqida yondirguvchisiz.

Siz shunday insonsiz butun dunyoga,
Ma'rifat nurini taratib qo'ygan.
Ming bora shukrlar bo'lsin Allohga,
Ulug' ustozlarni yaratib qo'ygan.

San'at ahli

Tuhmat toshin otmang san'at ahliga,
Yolg'on, bo'htonlarga ko'mmang iltimos.
Xiyonat qilmas hech birov haqqiga,
Yomon ko'rganlardan olmaydi qasos.

Yuziga loy chaplab, malomat qilmang,
U ham Alloh bergan taqdir egasi.
Mayliga yoqtirmang, nazarga ilmang,
Lekin u kimningdir bugun, ertasi.

Qilayotgan ishini ustidan kulmang,
Masxaraboz, deya qilmang haqorat.
San'at deganida, yuzingiz burmang,
San'atkorda bordir dard va mahorat.

San'at harom, deya bermangiz fatvo,
Uni gunohkorga chiqarib darrov.
Ayting o'zingiz kim begunoh, daho?
Birovning taqdirin bilmaydi birov.

Siz Xudo emassiz, shuni unutmang,
Do'zaxiysan, deya botmang gunohga.
Asl san'atkordan yomonlik kutmang,
Uning ham aytgani bordir Allohga.

Balki yo'q emasdir, siz aytgandaylar,
Ular san'atkormas, san'at dog'lari.
Pul uchun vijdonin sotishga shaylar,
Lek ular orasida ko'pdir "sog'lari".

G'ururin toptamang san'at ahlini,
Ismini tuproqqa qormanglar zinhor.
Ortidan gapirmang qilgan aybini,
Axir begunohdir bir Parvardigor.

Nafrat bilan boqmang san'at ahliga,
Yomon bo'lsa, shunchaki so'rang hidoyat.
O'lsa, duo qiling bir bor haqqiga,
Alloh gunohlarin kechirsa shoyat.

Uni o'zingizga dushman deb bilmang,
Chunki birday emas besh qo'l hammasi.
San'atin qoralab, qalbini tilmang,
Zero, u ham Allohning oddiy bandasi.

Falsafa

So'zsiz botqoqdagi qurbaqa,
Butun dunyo botqoq deb bilar.
Biyobonda qorni to'q tuya,
Eng yaxshisi yantoq deb bilar.

Gulzorda tug'ilgan kapalak,
Go'zal derkan butun jahonni.
Yomg'irdan so'ng chiqqan kamalak,
Doim musaffo der osmonni.

Samolarda uchgan qushlarga,
Samo erur eng yaxshi ulfat.
Bir ko'lmakda suzgan baliqqa,
Shu ko'lmagi qurisa kulfat.

Hayvonlarning podshohi sher ham,
Butun o'rmon meniki derkan.
Yaralanib yotib qolganda,
Go'shtin chiyabo'rilar yerkan.

Qancha mehnat qilsada eshak,
Bir kun kelib, ot bo'lib qolmas.
Inson ilm o'rgansa beshak,
Bu hayotda mot bo'lib qolmas.

Ustozga ta'rif

Men sizga ta'riflar topishim mushkul,
Siz uchun yetarli so'z bormi bilmam,
E'tirof etmaslik imkonsiz butkul,
Sizda butun jahon ta'riflari jam.

Tuproqqa qiyoslar etsam ranjimang,
Chunki siz tuproqday mushfiq, xokisor,
Dilingiz tilingiz bilan hamohang,
Hatto tanbehlingiz ham beozor.

Quyoshga o'xshatsam ajablanmang hech,
Quyoshning nuri ham sizga o'xshaydi,
Lekin o'sha quyosh nuri sizchalik,
Olamni charog'on yoritolmaydi.

Siz suvga o'xshaysiz sababin aytsam,
Bilinga chanqog'ni qondirguvchisiz,
Siz misli olovsiz bizlarni har dam,
Ilmning ishqida yondirguvchisiz.

Siz shunday insonsiz butun dunyoga,
Ma'rifat nurini taratib qo'ygan,
Ming bora shukrlar bo'lsin Allohga,
Ulug' ustozlarni yaratib qo'ygan.

Oliygo'h

Bir o'lka bor, uning nomi O'zbekiston,
Unda bordir san'atkorga chin oshiyon,
Asl san'at madaniyatga erur makon,
Iste'dodlar oshiyoni bo'lgan dargoh,
Yurtimizga yarashgan, zo'r oliygoh!

Yetishtirar xalqqa necha yulduzlarni,
Ta'lim berar tunga ulab kunduzlarni,
Farzandidek qabul qilgan u bizlarni,
Orzularga yetish uchun bo'lar hamroh,
Yurtimizga yarashgan, zo'r oliygoh!

Ostonadan kelib turar san'at isi,
Kelajakka bo'lgan ajib ishonch hissi,
Har kim uchun o'rnak bo'lar o'g'il qizi,
Gar adashsak ilm bilan etar ogoh,
Yurtimizga yarashgan, zo'r oliygoh!

Hali dunyo tanir o'chmas nomi bilan,
Shu nomga mos shuhrati-yu shoni bilan,
El tanigan san'atkorlar soni bilan,
Yaratganning o'zi etsin doim panoh,
Yurtimizga yarashgan, zo'r oliygoh!

Zavq

O'ksinib yashamang yorug' dunyoda,
Dilingiz qay ular o'rtaq qo'ymasin.
Ertangiz bugundan bo'lsin ziyoda,
O'tmishni orzusi yo'qlar o'ylasin.

Iymanib yashamang, tabassum qiling,
Olamga sig'masin shodliklaringiz.
Yomonsan desalar shunchaki kuling,
Keyin sherik bo'lsin sho'xliklaringiz.

Mayli qoralasin sizni har kimsa,
Quvonch-u baxtingiz ko'rolmasinlar.
Qayg'uga yengilmang yuzma-yuz kelsa,
Afsuslar sizga yaqin yo'lolmasinlar.

Dardni ham baxtni ham berguvchi Alloh,
Bariga shukrlar qiling ming bora.
Hamisha yonma-yon savob-u gunoh,
Bandasi g'iybatlar bilan ovora.

Mastura qiya ochiq darvozaga yaqinlasharkan, qadamini sekinlatdi. Ichkariga kirib, atrofga alangladi, tushlik vaqti bo'lganligi uchunmi biror zot ko'rinmaydi. Hovlining bir chetiga ekilgan kuzgi gullar sariq, qizil, pushti rangda jilolanar, ariqda jimir-jimir suv oqardi. O'ng tomondagi yog'och ishkonda oftob nurida husayni uzumlar tovlanar, qushlar esa ishkomb tepasiga qo'lbola qilib yasalgan "qo'riqchi"ni pisand etmay, uzumlarni cho'qishardi.

"Hech narsa o'zgarmagandek, o'sha-o'sha..." xayolidan o'tkazdi u. Hovli to'ridagi peshayvonga yaqinlasharkan, ayvonga suyanch bo'lgan yog'och ustunni beixtiyor silab qo'ydi. Bir paytlar xonadonga viqor, ko'rk bo'lgan bu yog'och ustun endi uning ko'ziga ancha cho'kkandek, yoriqlari ko'paygandek tuyuldi. Baribir unga bu ustun shu maskandagi boshqa narsalar qatori qadrlı, suyukli. Chunki u mana shu ustunni ushlab, Allohga iltijo qilgan, bolalik osmonining qo'l yetmas orzulari bo'lmish yulduzlar bilan o'rtoqlashgan, sirlashgan. Ayvonda qancha turib qoldi bilmadi, bir payt o'ng tarafga bejirim qilib solingan yangi uydən chiqib qolgan kelinchak ostonada turgan mehmonga avval ajablanib qaradi. So'ng:

– Assalomu alaykum, yaxshimisiz, keling, – dedi tabassum bilan boshidagi simro'molini mahkamroq o'rarkan. Atlas ko'ylak-lozimda yal-yal yonib turgan kelinchakning kulib turgan ko'zlarini, samimiyligini ko'rib, xonadonga go'zal, aqli raso kelin tushibdi, deb o'yladi u.

– Yaxshimisiz Shohistaxon, men Mastura opangizman, dadangizni jiyanlari, – dedi u ham kelinchak bilan xushlashib. So'ng qo'lidagi xaltalarni mezbonga tutarkan:

– Ibodat opani... – dedi hamon charos ko'zlari bilan hayron boqib turgan mezbonga:

– Ha, bo'ldi, bo'ldi toshkentlik jiyanlari. Anvar akam aytgandilar. Yaxshi yetib keldingizmi? Uydagilar tinchmi? – deya kelinchak uni ichkariga taklif etdi. Mastura bo'lsa:

– Hozir kiraman, kiravering, – dedi bog' tomonga ishora qilib. Ziyrakkina kelinchak esa:

– Bemalol, – dedi kulib va darrov toza sochiqni obdasta oldiga qo'yib ketdi. Mastura asta odimlab tevarakni kuzatib borarkan, hovli to'ridagi hujra tomon yo'lini burdi. Bu yer ko'zdan sal nari, hovlining chetida joylashgan bo'lib, hujra u va onasining ne-ne kechmishiga, hasratli kunlari-yu, orzuli tunlariga guvoh. Yanayam eskiribdi, – dedi o'ziga ohaklari ko'chib, suvoqlari to'kilib qolgan devorlarga boqib. "Eshigiyam o'sha-o'sha, almashtirishmabdi", o'yladi u asta yog'och eshikni ochib, ichkariga mo'alarkan. Is bosib ketganiga qaraganda, anchadan beri bu joyga odam kirmagan, lash-lushlar qalashib yotgani esa, uynıng eski omborxonaga aylanganligini anglatardi. Ilgari eshik tutqichi oldidagi mana bu teshikka qo'li bemalol kirib chiqardi, endi esa yo'q. Sig'maydi-da, axir oradan qancha vaqt o'tdi. Tog'asi rahmatli bu eshikning o'rniga boshqasini o'rnatib beraman deganda, yangasi ko'nmagandi. "Uning o'rniga anavi yangi uyni bitirsangizchi!", degandi qumsuvoq uyni ko'rsatib. Yozda-ku bilinmasdi. Ammo qish kelishi bilan uning mushtidek keladigan shu teshikdan xirmondek shamol guvullab kirar, onasi eski sholchalarni eshikka qavat-qavat parda qilib osib qo'yardi...

Hayallab qoldi shekilli, ortidagi sharpadan Mastura to'zg'igan xayollarini yig'ib, kelinchak bilan uyga kirdi. Ichkarida dasturxon bezatilgan, faqat yangasi ko'rinmasdi.

– Hozir kiradilar, dasturxonga qarab o'tiring, – dedi issiq choy uzatib kelinchak.

So'ng "men hozir", – dedi-yu chaqqaongina uydən chiqdi. Xonada yolg'iz qolgan Mastura uyni kuzata boshladi. O'z davridan so'zlaydigan bu jihozlar chol-kampirning chog'roq xonasini eslatar, ilgari u bu uyga ruxsatsiz kirmas, bugun esa mehmon bo'lib o'tiribdi. Gilam tepasiga osilgan tog'asi rahmatlining suratiga kelganda, nigohi birdan to'xtab qoldi. Rasmda o'ttiz besh yoshlar chamasidagi do'ppi kiyib olgan, ko'zlari onasinikidek mehrli bu inson ular uchun xotini bilan necha bor sanmanga bordi-ya? Ikki tomonga birdek turish, ko'ngli yarim singlisiga suyanch bo'lish uchun qancha tirishdi. To'g'ri, gohida yangasining yolg'on-yashiqclariga ishonib, ularni koyigan ham bo'lardi, biroq baribir mung balqigan ko'zlaridan jigarlariga nisbatan mehr, oqibat borligi sezilib turardi. Bugun onasi majburlamaganida, Mastura kelmasdi. Tog'asi vafot qilganidan beri bu



uyga kelmagan, shunga ham ancha yil bo'ldi. Onasi "Yangang seni ko'p so'raydi, mazasi yo'q-da, bo'lmasa o'zi kelardi. Sen kichkinasan, bor qizim. Odam degani kechirimli bo'ladi", deb qo'ymadi. Mana endi kelib, o'tmish bilan yana bir karra yuzlashgandek, uning og'riqli kunlarini yana ko'rgandek bo'lyapti. U tog'asining navqiron suratiga boqib shularni o'ylab o'tirarkan, uyga yangasining kirib kelganini sezmay qoldi.

– Xush kelibsiz, Mastura qizim, omon-misiz? – dedi yangasi unga quchoq ochib. Qarindoshlar bir-birini bag'riga bosarkan, Mastura yangasining titraganini, hayajonlanganini sezdi. Haliyam ovozi o'ktam-u, lekin o'zi bir oz horigandek, tik qomati picha cho'kkandek edi.

– Peshinni o'qiyotgandim, uzr aylanay. Bu keladigan kuningiz ham bor ekan-ku, biz tarflarga, – dedi yangasi unga ginaxonlik qilib.

– Ha, tashvishlar bilan bo'lib, kelolmadik. To'ylar yaxshi o'tdimi? Kelinlar chaqqongina xizmatingizni qilib yurishibdimi? – dedi u ham mulozamat uchun.

– Rahmat, aylanay. Shukur, shu kunlarga yetdik. O'zingiz yaxshimisiz, Murodjon, bolalar yaxshi yurishibdimi? Kelishmadimi ular?, – dedi yangasi non ushatarkan.

– Ish, o'qish degandek. Bir-birimizni kutsak, haliyam qolib ketamiz. Shuning uchun o'zim kelaverdim. Hammasi salom

aytishdi sizlarga, – dedi u dasturxonning gulli naqshini qo'li bilan silab.

Yangasi likopchada yangi uzilgan husayni uzumlarni olib kirgan keliniga:

– Shohistaxon holvalardan ham olib kiring, Mastura opangiz yaxshi ko'radi, – dedi unga qarab kulib qo'yarkan. So'ng birdan nimadir yodiga tushgandek, jim bo'lib qoldi.

– Ha, yaxshi ko'rardim, – dedi Mastura ham tasdiqlab va bolaligida bo'lgan bir hodisa yodiga tushib ketdi...

O'shanda tog'asınikiga mehmonlar kelgan, bu mahal odatdagidek dasturxon bezatilar, taqchillik zamonida unda-munda yo'q qand, turshak, yong'oq, ayniqsa u juda yaxshi ko'radigan sedanali holva shu kuni albatta, qo'yilardi. Bola emasmi, o'sha holvadan bir dona olgisi, yegisi keldi. Mehmonlarga choy tashib yurgan onasiga shuncha yalin-

Nargiza ASADOVA,
Madaniyat va san'at sohasi
menejmenti 2-bosqich
magistranti,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

deb yuribmiz-da, aylanay" degani-yu, tog'asining "bas qil!" deb xotiniga o'sh-qirgani eshitildi.

Ular nam hidi anqib turgan xonaga kirisharkan, kutilmaganda onasi uning yuziga tarsaki tushirdi. O'zi shundoq ham qo'rqib ketgan Mastura endi yuzlarini berkitgancha chinqirib yig'lab yubordi.

– Nega unday qilasan-a, nega? Shu bir parcha bilan qorning to'yib qolarmidi? O'zi shu turishimiz ham kammi, bolam?! – dedi onasi zorlanib, keyin o'zi ham yig'ladi. Boyadan beri xo'rliqi kelib yig'layotgan Mastura onasining ko'z yoshlarini ko'rib tinchib qolgan va ro'parasida bir hovuch bo'lib titrayotgan bechora mushtiparini yupatish uchun uning yuzlarini siladi:

– Boshqa bunday qilmayman, faqat siz yig'lamang, – dedi u. O'ksib yig'layotgan onasi esa, yuzlarini ro'molining uchiga artib, uni bag'riga bosdi. Shu holda onabola ancha o'tirishdi. Keyin yangasining ovozi eshitib, sapchib o'rnidan turarkan, "Sen shu yerda o'tir, maylimi qizim", degancha shoshib chiqib ketdi. Mastura yoshlarini yamoq bosilgan ko'ylagining yengiga artarkan, kaftidagi holvani ko'rib jim bo'lib qoldi. Boyagina o'zi tamshanib, ming bir istihola, qo'rquv bilan olgan holvaga bir zum tikilib turdi-da, so'ng uni irg'itib yubordi...

Hozir shular xayolidan o'tarkan, ko'zi bilan yer chizib o'tirgan yangasiga qaradi. Ayol ham uni anglagandek, xotiralarini his etgandek og'ir "uh" tortdi. Keyin:

– Masturaxon, qizim. Mendan xafadirsiz-a? Xom sut emgan bandamiz-da, bilib-bilmay ko'p gunohlar qilamiz. Lekin o'tinaman, tog'angizdan ranjimang. Ular sizni juda yaxshi ko'rardilar. Kasal bo'lganlarida ham Ibodat bilan sizni chaqiraverdi, – dedi ko'zlariga yosh to'lib.

– Kelishingizni ayon qilgandek tushimga kirib yurgandilar. Hadeb so'ra, dermish boyaqish. Endi bilsam, uzr so'ra, degan bo'lsalar kerak-da. Ibodat baraka topsin, kelib turadi. Sizni, kuyovni juda maqtaydi. Qo'sha qaring, iloyim. Besh kunlik dunyoda bir-birimizdan gina qilmaylik, endi qizim, – dedi yangasi qaltiroq qo'llarini uning kaftiga bosarkan. Bir paytlar hali pishib yetilmagan makkapoya popugini uzib qo'g'irchoq qilib o'ynaganida, uni o'qlov bilan urgan mana shu qo'llar edi...

Ko'klam chog'i tomdan qizg'aldoq terib tushib, shodlanib onasiga tuganda, "Undan ko'ra, mollarga o't o'r, yashshamagur!" deya shartta gullarni mayda-mayda qilib, oxurga tashlagan, sal bo'yi cho'zilganda, tog'asi qizlari qatori unga ham chit ko'ylak olib kelganida, payt poylab ko'ylakni tandirdagi o'tga tashlagan ham shu qo'llar edi. Aytaversa eh-he... Endi titroq ingan bu qo'llarni kechirish, unutish mumkinmi?!

Mastura og'ir xayollariga g'arq bo'lib, qancha o'tirganini bilmadi, shu mahal patnisga yong'oqli, pistali, sedanali pashmak, holvalarni solib jilmaygan ko'yi Shohistaxon kirib keldi. Mastura likopchalarni dasturxonga qo'yayotgan yosh kelinchakning hali gard qo'nmagan, hayotning zalvor yuklari soya solmagan beg'ubor nigohlariga qarab turib:

– Shohistaxon, holva uchun rahmat, baraka toping, – deb minnatdorchilik bildirarkan, yangasi yalt etib unga qaradi...



O'zlik...Tarixsiz kelajak yo'q!
O'zlikni anglash eng qiyin ish, lekin biz ana shu qiyin ishni yanada murakkablashtiryapmiz.

Men kimman? Nima uchun keldim? Kimning avlodiman? Ota-bobolarim kim edi? Nima ishlar qilishgan? Men nima qil-yapman? Mening avlodlarim kim bo'lishadi? Mendan ularga nima meros qoladi? Meros, biroq qiziqib qoldingizmi?! Afsuski, bu siz o'ylagan moddiy meros emas. Bu yaxshi nom, foydali ilm, mustahkam qo'rg'on, oila, qadriyatlar va umumiy qilib aytganda ma'naviy meros.

Yer yuzidagi insonlarning hayot qonuni faqat ana shu. Avlodlar davomiyligi insoniyat halokatining oldini oluvchi yagona qonuniyat. Ammo biz insonlar bu oddiy qonuniyatni unutib qo'ydik.

San'atning insoniyat uchun kerakligi – biz unutib borayotgan, loqaydlik bilan qarayotgan biz va avlodimiz uchun juda muhim, suv va havodek zarur narsalarga e'tiborimizni qaratish, eslatish va g'aflat uyqusidan uyg'otish. Xususan, kino san'ati bu borada eng maqbul san'at turidir. Chunki hozirgi kunda teatrga, tasviriy san'at ko'rgazmalariga insonlarning borishini tasavvur qilish qiyin. Zero, inson borki, kino ko'radi. Bundan unumli foydalangan holda ijodkorlar, ma'naviy inqirozdan insoniyatni tom ma'noda qutqarishi mumkin. Bir o'ylab ko'ring, insonning eng baxtli chog'i o'tgan maskani qayer? Ilk teta-poya qilgan va ohista odimlari tekkan tuproq qayerda? Allohning yana bir buyuk ne'mati nutq, kalomi qayerda yangragan? Ha, oilada, ota uyimizda. Qiz bo'lsin, o'g'il bo'lsin bir kuni o'z tug'ilib o'sgan ota-bobolari tomir otib, ko'paygan uyni tark etadi. Ota-bobosining kindik qoni to'kilgan, peshona teri bilan bunyod etilgan uyi, vatani. Yer esa, butun insoniyat uchun ota uydur.

Meni hissiyotlarimni tom ma'noda junbushga keltirgan o'zbek kino san'atining yana bir namunasi 2017-yilda 6-noyabr premyerasi bo'lgan "Ota uy" badiiy filmi. Tasvirga olinganiga deyarli 8 yil bo'lganiga qaramasdan, unda ko'tarilgan mavzu hamma

davr uchun dolzarb hisoblanadi. Badiiy filmda rol ijro etgan ijodkorlar: Po'lat Saidqosimov, Alisher Uzoqov, Bobur Yo'ldoshev, Feruza Saidova, Feruza Sobitova, Uchqun Tillayev va Sanjar Sattarovlarning ijro mahoratlari, mehnatlarini unutmastlik kerak. Albatta, bu filmning ssenariy mualliflari Jamshid Ishoqov va Mastura Ishoqovalarni tilga olmaslik mumkin emas. Badiiy filmni tomosha qilar ekansiz, ular ilgari surgan g'oyalarining qaysidir ma'noda uchqunlarini topa olamiz. Film o'ziga yarasha yutuq va kamchiliklarga ega. Kinoni ko'rish jarayonida, Ayub Shaxobiddinov stilistikasiga o'xshash jihatlarni ko'rdim. Kadr estetikasi, aktyorlar ansambli va umumiy uyg'unlik shu xulosaga kelishimga sabab bo'ldi.

Rejissyorning erkin ijod qilishiga byudjetning taqchilligi va vaqtning kamligi tasir qilgani sezilgan. Tomoshabin sifatida Rahim otaning o'z otasini eslashi, farzandini yo'qotishga sabab bo'lgan kadrlarni ko'rishni istardim va bu filmni yanada boyitar edi. Bir mashhur rejissyorning kino haqidagi fikricha, kino sizni kundalik hayotdan dam olishingizga sababchi bo'lib, unda ko'tarilgan mavzuda fikr yuritsangiz, u o'z vazifasini bajargan hisoblanadi.

"Ota uy" bizning uyimiz, vatanimiz, dardimiz, armonimiz, qayg'u-g'amimiz va umidlarimiz haqidagi film. Po'lat Saidqosimov ijroisidagi Rahim ota obrazi siz va bizning otamiz, bobomizga juda-juda o'xshash. Otaning bag'ri shunchalik kengki, butun dunyoni sig'dira oladi. U shu qadar donishmandki, uning sukutining o'zi bir hikmat. Tanasi hayot bo'ronlariga bardosh beraverib kuchdan qolgan, ammo ildizi baquvvat. Aynan shu "ildiz"i tufayligina mag'rur va bardam. Zotan, "ildiz" hayotda mustahkam turishi uchun kuch berayotgan manba. Ammo xalqimizda oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, – deb bejiz aytishmagan.

Ajar **NORMENOVA,**
Kino va
televideniye
rejissyorligi yo'nalishi
1-bosqich magistranti

Rahim otaning eng yaqin kishilari, farzandlari siz-u bizga o'xshagan juda band kishilar. Globallashuv asrining intellektual va mustaqil insonlari. Har doim shoshib yurishadi, go'yo hayot oqimida suzib yurgan baliqlardek.

Hayotni ummonga qiyoslasak, uning to'liqida suzib yurganlar siz-men va Rahim otaning farzandlari asl ummonning go'zalligi uning tubida (duru-javohirlar, marjon qoyalar) ekanligini anglamaymiz. Aniqrog'i bunga vaqtimiz yo'q go'yo. Qayoqqadir shoshilamiz. Hatto o'zimiz bilmaymiz. Hayot to'liqlari bizni ulotqirgandagina ummonning tubini ko'ramiz. Bu hayotdagi biz uchun eng qadrlilarmiz ota-onalarimiz, farzandlarimiz va jufti halolimiz.

Qurbon va Rahim otanining qalbidagi jarohat birlashtirdi. Rahim ota ham ayoli, kenja farzandidan ayrilgan, ko'ngli yarim edi. Qurbon Rahim otaning vafot etgan farzandiga o'xshar, go'yoki farzandi tirilib qaytib kelgandek edi...

Darhaqiqat, biz insonlar qachonki biror kimsani yo'qotish qo'rquvi bo'lsagina uning qadrini seza boshlaymiz. Rahim otaning shifoxonaga tushishi va o'z otasidan ayrilib qolish hissiyoti o'g'lining ko'zlarini ochdi..

Qushning ham uyasi buzilmasin! Hayotda vaqtni orqaga qaytarolmaysiz. Kinoda buni uddalashingiz mumkin. Ammo hatto kinoda ham hayot qonunylari ishlamasa, siz u kinonini ko'rmasiz. Chunki san'at, kino san'ati hayotning inikosidir.

Bugun dunyoda sodir bo'layotgan voqealiklar har birimizni ogohlikka chaqiradi. Insoniy qi-yofamizni saqlashimiz, ota-bobolarimiz asrab-avaylab kelgan vatanni, ota uyimizni asrab-avaylash har birimizning burchimizdir! Zero, ildizdan ajralmasak, aksincha undan quvvat olsak, shox-larimiz keng quloch yozib, barg-larimiz ko'payadi.

TARIXNING

biz bilmagan sahifalari...



◀ Boshlanishi 3- betda

U birinchi ayol publitsisti, jadidchilik davri jurnalisti, shoirasi, ayollar haq-huquqini talab eta olgan dovyurak ayol. Marhamat Alimova o'zining "O'zbekiston matbuotida ayollar tarixi" asarida "Nozima Xonim tabiatan adolatsizlikka ayovsiz edi", – deya ta'rif beradi.

Nozima Xonim ziyoli oilada tavallud topadi. U arab, fors, tatar va rus tillarini o'rganagan. O'z ijod namunalarida u ayollarning bilim olishi va jamiyat hayotidagi ishtiroki, haq-huquqi yoki oilada ayollarning o'rni haqida qalam tebratadi. Uning 1915-yilda yuzi ochiq ayollarni fohishaga tenglashtirilgan she'rga javoban yozilgan she'ri ham chop etilgan.

Xulosa qilib aytganda, bugun jadidchilik harakati ilgari surgan erkinlikka erishdik. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ayollarga katta e'tibor, erkinliklar bermoqdalar. Zotan, ayollar nafaqat oilada, balki ijtimoiy hayotda ham erkin, faol ekanliklarini isbotlamoqdalar.

BAXT

Asliddin **RAYIMOV,**
Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi
2-bosqich talabasi

"Loy olib kel", mening har kunim ushbu so'zlarni eshitish bilan boshlanadi. Ikki yildan buyon qurilishda ishlayman. Kun bo'yi chang, ustbosh kirligi, tushlikda faqat makaron ovqati va kechgacha yaqin uyga bel og'rig'i bilan qaytish. Ertasi kuni esa hammasi qayta boshlanadi. Bunday bir xillik meni jonimga tegardi. Lekin qo'limga pul tegishi bilan hammasi unutilar va bir necha kun g'ayrat bilan ishlashga kuch paydo bo'lardi. Ammo bugun bu ishlar juda jonimga tegdi. Tushlikka o'tirganda yana o'sha makaron. Yegim kelmay, qoshiq bilan ovqatni kovlab o'tirdim. Usta menga qarab gapirdi:

- Salim, ovqatingni yeb ol. Bo'lmasa, ishlay olmayсан.
- Yegim kelmayapti. Bir savol bersam maylimi usta?
- Mayli.
- Har kuni changda ishlash, makaron yeyish, bel og'riqlari, joningizga tegmaydimi?
- Eh, shogirt nega jonimga tegsin, – deya kulib javob berdi usta.
- Bunday bo'lishi mumkin emas. Uyga borsam tanamni zirqirab og'rishlaridan uxlo olmay chiqaman.
- Shogirt doim uyga kirib borganingda, farzandingni "Dadam keldilar", deb yugurib kelishi barcha og'riqlarni esdan chiqarib yuboradi. Shu sabab ham doim ishlashga kuch topaman.

Usta aytgan gaplarini tushunmadim. Sababi, men hali uylanmaganman, ammo kechgacha uning gaplarni o'ylab yurdim. Farzandim ishdan kelsam kutib olganida nimalarni his qilishimga rosa qiziqdim.

Ish ham tugadi. Oyoqlarimni sudrab, uyga kirib keldim. Darvozani ochishim bilan ichkaridan ovoz eshitildi:

- Akam keldilar!
- Bu kim bo'ldi. Ibrohimmi? Ha, meni bittagina jiyanim Ibrohim. Demak, tog'am mehmonga kelibdida. Ibrohim meni juda yaxshi ko'rardi.
- Menga qarab yugurib kelarkan, o'zim bilmagan holda yerga cho'kkalab, uni ko'tardim.
- Ajabo, ayni shu lahzada barcha og'riqlarimni unuttim. Bu qanday sehr. Usta aytgan hissiyot shu ekanda. Bunchalar yoqimli bo'lmasa...